

**QARSHI MUHANDISLIK-IQTISODIYOT INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.04/30.04.2021.T.111.04 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

QARSHI MUHANDISLIK-IQTISODIYOT INSTITUTI

RAHIMOV ASHRAF RASUL O‘G‘LI

**SUV OQIMINING NOBARQAROR HARAKATIDAGI GRUNTLI
KANALLARNING DEFORMATSIYASINI TADQIQOTLASH**

05.09.07 – Gidravlika va muhandislik gidrologiyasi

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Qarshi – 2021

**Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiya avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
техническим наукам**

**Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on technical sciences**

Rahimov Ashraf Rasul o‘g‘li

Suv oqimining nobarqaror harakatidagi gruntli kanallarning deformatsiyasini
tadqiqotlash..... 3

Рахимов Ашраф Расул угли

Исследование деформаций грунтовых каналов при неустановившемся
движении водного потока 23

Rakhimov Ashraf Rasul ugli

Investigation of the deformation of soil channels with an unstable movement of a
water flow 41

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ
List of published works..... 45

**QARSHI MUHANDISLIK-IQTISODIYOT INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.04/30.04.2021.T.111.04 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

QARSHI MUHANDISLIK-IQTISODIYOT INSTITUTI

RAHIMOV ASHRAF RASUL O‘G‘LI

**SUV OQIMINING NOBARQAROR HARAKATIDAGI GRUNTLI
KANALLARNING DEFORMATSIYASINI TADQIQOTLASH**

05.09.07 – Gidravlika va muhandislik gidrologiyasi

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Qarshi – 2021

Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2021.1.PhD/T2159 raqam bilan ro'yxatga olingan

Dissertatsiya Qarshi muhandislik-iqtisodiyot institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uchun uch tilda (o'zbek, rus va ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (qmii@qmii.uz) va «Ziyonet» Axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Eshev Sobir Samatovich
texnika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Maxmudov Ernazar Jumayevich
texnika fanlari doktori, professor

Ibragimov Ilhom Ahrorovich
texnika fanlari falsafa doktori (PhD)


Yetakchi tashkilot:

O'zbekiston milliy universiteti

Dissertatsiya himoyasi Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti huzuridagi PhD. 04/30.04.2021.T.111.04 raqamli ilmiy kengashning "23" 11 2021 y soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 180100, Qarshi sh., Mustaqillik ko'chasi 225, Tel:(+99875) 221-09-23 faks: (+99875) 224-13-95 e-mail: kiei_info@edu.uz, qmii@qmii.uz

Dissertatsiya bilan Qarshi muhandislik-iqtisodiyot institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (13 raqamli bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 180100, Qarshi sh., Mustaqillik ko'chasi 225, Tel:(+99875) 221-03-77 e-mail: arm.qmii.uz

Dissertatsiya avtoreferati 2021 yil "24" 10 kuni tarqatildi.
(20 21 yil "24" 10 dagi № 1 raqamli reestr bayonnomasi)



U.U.Jonqobilov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash rais o'rinbosari, t.f.d., professor

Sh.A.Latipov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, t.f.f.d., (PhD), dotsent

F.A.Gapparov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash huzuridagi Ilmiy seminar raisi t.f.d., dotsent

KIRISH (Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasiga annotasiya)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda daryo o‘zanida qurilgan gidrotexnika inshootlaridan suv oqib o‘tish jarayonida uning tabiiy rejimiga ta’sir qilib, turli ko‘rinishdagi deformatsiyalarni sodir bo‘lishiga olib keladi. O‘zan deformatsiyalari faqatgina inshootning normal ekspluatasiya qilinishiga ta’sir qilmay, balki inshootning o‘ziga ham xavf tug‘dirishi mumkin. Shu sababli o‘zan jarayonlarining qonuniyatlarini bilish o‘ta muhim masala ekanligini ko‘rsatadi. Uning yechimi quriladigan va ekspluatasiya qilinadigan inshootlarda sodir bo‘lishi mumkin bo‘ladigan avariya va o‘zan jarayonidagi salbiy oqibatlarining o‘z vaqtida oldini olishni taqozo etadi. Hozirgi vaqtda loyihaladigan gruntli kanallarda oqimning to‘lqinli harakatiga unchalik e’tibor qaratilmaydi. Shu jihatdan gruntli ochiq o‘zanlar oqimiga shamol to‘lqinlarining ta’sirini inobatga olgan holda deformatsion jarayonlarini tadqiqotlash va ularni prognozlash usullarini ishlab chiqish o‘ta muhim masalalardan biri bo‘lib hisoblanadi.

Jahonda gruntli kanallarning barqaror va nobarqaror (oqimga shamol to‘lqinlari ta’siridagi) oqimining holatlarida o‘zan dinamik mustahkam ko‘ndalang kesimining va oqizqlar transportining hisob usullarini takomillashtirilishiga katta e’tibor qaratilmoqda. Bu yo‘nalishda, shu jumladan Rossiya, AQSH, Xitoy, Niderlandiya, Germaniya, Fransiya, Yaponiya va boshqa rivojlangan mamlakatlarda barqaror va nobarqaror oqim sharoitlarida bo‘lgan gruntli kanallarni loyihalashning ishonchli usullarini ishlab chiqish, ulardagi deformatsiyalarni oldini olish va ulardan samarali foydalanishni ta’minlashga alohida e’tibor berilmoqda. Keyingi paytda jahon amaliyotida gruntli kanallarni loyihalashda shamol to‘lqinlarining parametrlarini aniqlashning progressiv usullari ishlab chiqilmoqda va ularning deformatsion jarayonlarga ta’sirini baholashga katta e’tibor berilmoqda. Demak, tanlangan dissertatsiya mavzusi shu kunning dolzarb masalalaridan hisoblanadi.

Respublikamizda gruntli irrigatsiya kanallarini loyihalash va samarali ekspluatatsiyasini ta’minlashdagi mukammal ishlanmalariga ta’sir qiladigan omillarni o‘rganish hamda ularni baholash va qo‘llanish shartlarini aniqlash bo‘yicha ko‘p sonli tadqiqotlar olib borilmoqda. 2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasida «...milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish uchun energiya va resurslar sarfini kamaytirish, melioratsiya va irrigatsiya ob’yektlari tarmoqlarini rivojlantirish, ishlab chiqarishga resurs tejankor texnologiyalarni keng joriy etish»¹ vazifalari belgilab berilgan. Mazkur vazifalarni amalga oshirish, jumladan suv resurslari taqchilligi davrida bog‘lanmagan gruntlardagi irrigatsiya tizimlarining gidrotexnika inshootlarini ishlashida ro‘y beradigan shikastlanish, ishdan chiqish va avariya va avariya hisobga olish asosida loyihalash va foydalanishning samarali

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-feraldagi PF 4947-son «O‘zbekiston Respublikasining yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida»gi Farmoni

ratsional uslublarini ishlab chiqishga qaratilgan ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF 4947-son “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida” va 2020-yil 10-iyuldagi PF 6024-son “O‘zbekiston Respublikasi suv xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo‘ljallangan konsepsiyasi” to‘g‘risidagi Farmonlari hamda 2017-yil 25-sentyabrdagi PQ 3286-son “Suv ob‘yektlarini muhofaza qilish tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti ma‘lum darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot Respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning V. “Qishloq xo‘jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof muhit muhofazasi” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Gruntli kanal o‘zanining ko‘ndalang kesimini shakllanish jarayoniga oid juda ko‘p nazariy va amaliy tadqiqotlar mavjud. Bu tadqiqotlar asosan V.S.Altunin, K.V.Grishanin, M.A.Mixalev, V.S.Knoroz, I.F.Karasev, G.P.Skrebkov, V.A.Skrilnikov, X.Sh.Shapiro, G.A.Aliyev, Ye.K.Rabkova, Yu.M.Kuzminov, Yu.A.Ibad-zade, R.R.Chugayev, R.A.Bagnold, V.Chou, J.F.Kennedi, X.A.Eynshteyn, D.V. Simons, A.X.Abalyans, R.M.Karimov, M.R.Bakiyev, E.J.Maxmudov, A.M.Arifjanov, S.S.Eshev va boshqa tadqiqotchilarning ilmiy ishlarida o‘z aksini topgan.

Gruntli ochiq o‘zan oqimlarining oqiziqnlarni transport qilish masalasi bilan K.I.Rossinskiy, A.N.Gostunskiy, Ye.A.Zamarin, I.I.Levi, B.I.Studenichnikov, V.S.Borovkov, Ye.I.Mass, I.G.Kantarji, I.A.Kuzmin, P.Akkers, Uayt, L.Van-Rayn, X.Eynshteyn, R.Engelund, Qyuik, J.F.Djonson, S.X.Abalyans, Q.Sh.Latipov, X.A.Ismagilov, A.M.Muxamedov, M.R.Bakiyev, E.J.Maxmudov, A.M.Arifjanov, D.R.Bazarov, S.S.Eshev va boshqa tadqiqotchilar shug‘ullanishgan va ularning tavsiyalaridan ko‘pgina loyihalarda qo‘llanilgan.

Hozirgi kunda mamlakatimizda loyihalaniладigan grunt o‘zanli kanallarning deformatsiya hisobi asosan oqimni tekis harakati bo‘yicha olib borilib, bu jarayonda nobarqaror (oqim+to‘lqin) oqim harakatining roli ko‘p hollarda inobatga olinmaydi. Lekin grunt o‘zanli kanallarda kechadigan o‘zan shakllanish jarayonida to‘lqinli oqimlarning ta’siri anchagina ahamiyatga ega bo‘ladi. Shu sababli, grunt o‘zanli kanallarning deformatsiyalarini hisob usullarini to‘lqinli oqim omillarini inobatga olgan holda takomillashtirish zaruriyati tug‘iladi. Bu o‘rganiladigan muammoning dolzarbligini irrigatsiya, melioratsiya, gidrotexnika va gidroenergetika masalalarida ko‘rish mumkin.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining 5/2016-“Gidrotexnika inshootlari va nasos stansiyalarining ilmiy-texnik masalalari yechimining samarasini oshirish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqish” (2016-2019), Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti

“Talimarjon suv ombori foydali ishchi hajmini aniqlash” 10/2019 xo‘jalik shartnomasi (2019-2020) va Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti “Irrigatsiya va melioratsiya tizimidagi inshootlarni loyihalashda takomillashgan gidravlik usullarni qo‘llash” GTI/1-19 xo‘jalik shartnomasi mavzulari doirasida bajarilgan (2019-2020).

Tadqiqotning maqsadi gruntli kanallarning dinamik mustahkam ko‘ndalang kesimlarini va oqiziqalar transportini shamol to‘lqinlarining ta’sirini inobatga olgan holda gidravlik hisoblash usullarini takomillashtirish bo‘lib hisoblanadi.

Tadqiqotning vazifalari:

gruntli kanallarning ko‘ndalang kesim shakllanishi va oqiziqalar transporti bo‘yicha mavjud gidravlik hisoblash usullarida hisobga olinmagan faktorlarni aniqlash;

grunt kanallarning barqaror va nobarqaror oqim holatlarida oqimning kinematik tuzilishini, ko‘ndalang kesimining shakllanishini va oqiziqalar transporti jarayonlarini laboratoriya va dala sharoitlarida tadqiqotlash;

barqaror va nobarqaror oqim holatlarida ishlaydigan gruntli kanallarning dinamik mustahkam ko‘ndalang kesimi hisob usullarini takomillashtirish;

gruntli kanallarning oqiziqalar sarfini hisoblash usullarini oqimning nobarqarorligini inobatga holda takomillashtirish.

Tadqiqot obyekti sifatida Qarshi magistral kanali olingan.

Tadqiqotlash predmeti gruntli kanallarda suvning barqaror va nobarqaror oqim holatlarida oqim kinematik strukturasi gidrodinamik kesimning shakllanishiga va oqiziqalar transportiga ta’siri qonuniyatlarini o‘rnatish.

Tadqiqotning usullari. Hidrodinamika tenglamalaridan, o‘zan gidravlikasi hisobi va matematik statistika usullaridan, hamda modellashtirishning gidravlik usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

gruntli kanallardagi dinamik mustahkam ko‘ndalang kesimning tenglamalari oqimning barqaror va nobarqaror sharoitlari inobatga olinib takomillashtirilgan va yangi hisob usullari ishlab chiqilgan;

gruntli kanallarda oqimning nisbiy oqiziqalar sarfini aniqlashning hisobiy bog‘lanishlariga suvning barqaror va nobarqaror harakatini holatlari inobatga olinib hosil qilingan va gidravlik hisob modeli ishlab chiqilgan;

olingan tenglamalar va eksperimental tadqiqotlar asosida gruntli kanallarda suvning barqaror va nobarqaror harakatini holatlarini inobatga oladigan mustahkam gidrodinamik kesimlarning gidravlik hisob usullari takomillashtirilgan va gidravlik hisob modeli ishlab chiqilgan;

hosil qilingan bog‘lanishlar va eksperimental tadqiqotlar asosida gruntli kanallarda suvning barqaror va nobarqaror harakatini sharoitlarida nisbiy oqiziqalar sarfini aniqlashning gidravlik hisob usullari takomillashtirilgan hamda bunga asosan hisob algoritmi va EHM hisoblash dasturi ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijasi quyidagilardan iborat:

Oqimning barqaror va nobarqaror harakatlari holatlarida ishlaydigan kanallarda dinamik mustahkam ko'ndalang kesimning takomillashgan hisob usullari ishlab chiqilgan;

kanal oqimining barqaror va nobarqaror sharoitlarida oqiziqnlarni tub osti va muallaq oqiziqnlarga ajratmasdan nisbiy oqiziqnlarni sarfini aniqlashning gidravlik modeli ishlab chiqilgan;

kanal oqimining barqaror va nobarqaror holatlarida dinamik mustahkam ko'ndalang kesimni va oqiziqnlarni sarflarini hisoblash uchun EHM dasturlari ishlab chiqilgan;

kanallarda oqimning barqaror va nobarqaror holatlarida mustahkam gidrodinamik kesimlarini va nisbiy oqiziqnlarni sarflarini hisoblash bo'yicha ilmiy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi qo'yilgan masalalarning aniqligiga, sifatli gidravlik usullardan foydalanilganligiga va hisobiy qiymatlarning laboratoriya va dala sharoitidagi tadqiqotlarni olib borilishi jarayonida olingan eksperimental ma'lumotlar bilan taqqoslanganligiga hamda matematik usullar va fizikaning qonunlaridan foydalanilganligiga asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati gruntli kanal oqimining barqaror va nobarqaror holatlarida o'zan ko'ndalang kesimini va oqiziqnlarni transportini aniqlashning gidravlik hisob usullarini takomillashtirilganligi va bularga asosan ilmiy tavsiyalar ishlab chiqilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati gruntli kanallardagi oqimning nobarqarorligini inobatga olgan holda uning gidravlik jihatdan samarador va ekspluatatsion ishonchliligini ta'minlanishi, sodir bo'ladigan ko'ndalang va bo'ylama deformatsiyalarning kamayishi va suv o'tkazish imkoniyatining ortishi hisobiga iqtisodiy samaradorlikka erishilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Kanal oqimining barqaror va nobarqaror harakatlari dinamik mustahkam ko'ndalang kesim shakllanishi va oqiziqnlarni transportini hisoblash usullarini takomillashtirish bo'yicha olingan natijalar asosida:

oqimning barqaror va nobarqaror holatlarida dinamik mustahkam ko'ndalang kesimning hisob usuli "Suv xo'jaligi vazirligi" tasarrufidagi "Amu-Qashqadaryo irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi" Qarshi magistral va "Mirishkor" kanallarida joriy etilgan (Suv xo'jaligi vazirligining 2021-yil 16-avgustdagi MB 72216602-raqamli ma'lumotnomasi). Natijada kanalning suv o'tkazish qobiliyatini bu hisob usulining qo'llanishi asosida 5-10 % ga oshirish imkoniyati yaratilgan;

oqimning barqaror va nobarqaror harakatlari nisbiy oqiziqnlarni sarfini hisob usuli "Suv xo'jaligi vazirligi" tasarrufidagi "Amu-Qashqadaryo irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi" Qarshi magistral va "Mirishkor" kanallarida joriy etilgan (Suv xo'jaligi vazirligining 2021-yil 16-avgustdagi MB 72216602-raqamli ma'lumotnomasi). Natijada kanalning suv o'tkazish qobiliyati bu hisob usulining qo'llanishi asosida 5-10 % ga oshirish imkoniyati yaratilgan;

yuqorida ko'rsatilgan hisob usullari "Suv xo'jaligi vazirligi" tasarrufidagi "Gidroproyekt" AJ va "UZGIP" AJ loyihalash institutlarida gidrotexnika inshootlarini loyihalashda foydalanish uchun qabul qilingan (Suv xo'jaligi vazirligining 2021-yil 16-avgustdagi MB 72216602-raqamli ma'lumotnomasi). Loyihalash ishlari natijasida kanallarning deformasion jarayonlarining kamayishiga va foydalanish samaradorligini 5-10 % ga oshirish imkoniyati yaratiladi.

Tadqiqot natijalari aprobeasiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari xalqaro, respublika va institut miqyosidagi anjumanlarda muhokama qilingan va ma'qullangan, jumladan 3 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 23 ta ilmiy ishlar chop etilgan. Shulardan, 1 ta monografiya, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining texnika fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 7 ta maqola, shu jumladan 5 ta maqola respublika va 2 ta maqola xorijiy jurnallarda nashr qilingan. Bulardan tashqari Skopus bazasidagi jurnallarda 3 ta maqola va yuqori impakt faktorli jurnallarda esa 3 ta maqola chop etilgan. Shuningdek, EHM dasturlari uchun 2 ta guvohnomalar olingan.

Tadqiqot hajmi va tuzilishi. Dissertatsiya ishi kirish, to'rt bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiya ishining hajmi 117 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning kirish qismida O'zbekiston Respublikasida va jahonda olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlariga ko'ra dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va amaliy ahamiyati asoslandi. Ishning maqsadi, vazifalari, tadqiqot obyektlari va predmetlari ifodalandi. Tadqiqot ishlarining Respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga mosligi, tadqiqot ishining ilmiy yangiligi va amaliy natijalari ochib berildi. Olingan natijalarning ishonchliligi va haqqoniyligi asoslandi. Ilmiy va amaliy ahamiyati izohlab berildi. Tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etilishi, ishning aprobeasiyasi, chop etilgan maqolalar va dissertatsiyaning tuzilishi hamda hajmi bo'yicha ma'lumotlar berildi.

Dissertatsiyaning "**Kanalning ko'ndalang kesimi va oqizqlar transporti hisob usullarini o'rganilganlik holati**" deb nomlangan birinchi bobda xorijiy va Respublikamizdagi yirik kanallarda shamol ta'siri ostida sodir bo'ladigan to'lqinlarning generasiyasi va ularning parametrlarini aniqlash hamda ro'y beradigan deformasiyalarning gidravlik hisob usullari qarab chiqilgan. Bunda o'zandagi oqimning barqaror va nobarqaror holatlarida kanalning ko'ndalang kesimi shakllanishini va oqizqlar transportini hisob usullarining hozirgi kundagi holatlari analitik tahlil qilinadi. Tahlil natijasiga ko'ra bu muammolarning mavjud yechimlarida shamol to'lqinlari bilan bog'liq bo'lgan nobarqaror oqimning ta'siri yetarli darajada o'rganilmaganligi va ularning ko'pgina hollarda faqat uzun to'lqinlarning gruntli kanallarda kechadigan o'zan shakllanish jarayonlarini

o'rganishga qaratilganligi qayd etiladi. Biroq, qisqa to'lqinlar ta'sirida bo'lgan ochiq kanal o'zanlarning deformatsiyalarini tadqiqotlash bo'yicha juda kam ma'lumotlar bo'lib, ularda ham faqatgina to'lqinlarning qirg'oqqa ta'siri masalasi o'rganilganligi qayd etiladi.

Kanalning ko'ndalang kesimini hisobida mavjud bo'lgan statik bog'lanishlarni modifikatsiyalash asosida dinamik mustahkam ko'ndalang kesimlarni hisob bog'lanishlarini hosil qilish taklif etiladi. Shuningdek, oqiziqalar transportini hisobi uchun adabiyotlarda mavjud bo'lgan energetik bog'lanishlardan foydalanib, nobarqaror oqim ta'sirini inobatga oladigan bog'lanishlar olish kerakligi ham taklif etiladi.

Demak, oqim va to'lqinlar ta'siri ostida bo'lgan oqiziqalarning sarfi oqiziqalar transporti bilan bog'liq bo'lgan ko'pgina masalalarning muhim jihatlaridan bo'lib hisoblanadi. Hozirgi vaqtda oqiziqalar sarfini hisoblashning fizik asoslangan usullari mavjud emas. Hozirda barqaror va nobarqaror oqimlardagi oqiziqalar transporti farqi deyarli tushunarli emas. Laboratoriya va dala sharoitlardagi eksperimentlar soni yetarlicha emas, ba'zida ularning natijalari bir-birini inkor etadi.

Bulardan kelib chiqib, gruntli kanallarda oqimning barqaror va nobarqaror sharoitlarida ko'ndalang kesim shakllanishi va oqiziqalar transporti bo'yicha tadqiqotlar olib borish kerakligi belgilab olindi.

Dissertatsiyaning **“Eksperimental qurilma va tadqiqotlarni o'tkazish uslublarining tavsifi”** deb nomlangan ikkinchi bobida o'zan ko'ndalang kesimini shakllanishida va oqiziqalar transportini aniqlashda nobarqaror oqimning ta'sirini baholash bo'yicha o'tkazilgan tadqiqotlarning natijalari ko'rsatilgan.

Modellashtirish Frud kriteriysi bo'yicha amalga oshirildi. Tadqiqotlarni o'tkazishda barqaror tekis oqim uchun $Re = (\nu_0 R) / \nu > Re_{kr}$ (bu yerda ν_0 - oqimning o'rtacha tezligi; R - gidravlik radius; ν - kinematik qovushoqlik koeffitsiyenti) ham, to'lqinli harakat uchun $Re = (\nu_{max} R) / \nu$ (bu yerda ν_{max} - to'lqinlarning maksimal orbital tezliklari; h - to'lqin balandligi) ham Reynolds soni bo'yicha avtomodellik ta'minlandi. Shuningdek, Veber soni bo'yicha ham avtomodellik ta'minlandi. Geometrik o'xshashlik ($L_m = L_n / m$) va $t_m = t_n \sqrt{m}$ ko'rinishdagi vaqt masshtabi tanlanib, to'lqinli jarayonlarni modellashtirish uchun Struxal kriteriysi bo'yicha o'xshashlik ta'minlandi.

Eksperimentlar Qarshi muhandislik-iqtisodiyot institutining laboratoriyasida o'tkazildi. Metall lotok (uzunligi 11 m, eni 2,50 m va balandligi 0,40 m) ichida kanalning modeli qurildi (1-rasm). Kanal yon tomon qiyaliklari $m = 2,5; 3,0; 3,5$ qilib qurildi va eksperimentlarda diametri $d_0 = 0,47$ mm bo'lgan qum ishlatildi (2-rasm).



1-rasm. Gidravlik lotokning umumiy ko‘rinishi

Turli yon tomon qiyalikdagi kanallar modeli lotok ustida yuradigan aravachaga birlashtirilgan metall planirovshik yordamida amalga oshirildi. Kanal modelining oxirida oqiziqqlarni tutib qoladigan maxsus hovuzcha yasalgan (2-rasm).



2-rasm. Bog‘lanmagan gruntli trapesiya shaklidagi kanalning modeli.



3-rasm. Aylanuvchi plastinka turidagi to‘lqin hosil qiluvchi moslama sxemasi

Kanal modelida suv oqimining nobarqaror holati lotok bosh qismida o‘rnatilgan to‘lqinlarni hosil qiluvchi (har xil chuqurlikda) moslama (ko‘chirish imkoniyatiga ega), ya’ni aylanadigan tekis to‘rtburchakli plastinka yordamida amalga oshirildi (3-rasm).

Rezervuarining bosh qismi devorida burchagi 90^0 ostida bo‘lgan Tomson o‘lchagich vodosliviga mos bo‘lgan uchburchakli qirqim ochilgan. Bu vodoslivda sarf $Q = 1,4H^{5/2}$ formula bo‘yicha aniqlandi. Kanalning belgilangan bo‘ylama va ko‘ndalang kesimlaridagi suv oqimining chuqurliklari shpisenmasshtab va SW-G100A lazerli masofa o‘lchagich yordamida o‘lchandi.

Belgilangan stvorlardagi oqimning chuqurligi bo‘yicha vertikal tezliklar ISV-1 markali mikrovertushka bilan o‘lchandi. Asosan h oqim vertikal chuqurligining $0,8h$; $0,6h$; $0,4h$; $0,2h$; nuqtalaridagi tezliklar o‘lchandi.

Donador gruntning fizik xossalari Qashqadaryo viloyat qurilishda regional tekshirish inspeksiyasining sinash laboratoriyasida o‘rnatildi.

Laboratoriya tajribalari ikki bosqichda olib borildi:

1-bosqich laboratoriya tajribalari kanal modelida o‘zan ko‘ndalang kesimining shakllanish jarayonini tadqiqotlash bo‘yicha o‘tkazildi.

2-bosqich laboratoriya tajribalari kanaldagi oqiziqslarning sarfini aniqlash bo‘yicha o‘tkazildi.

Laboratoriya tajribalari asosan kanal modelining tub osti nishabligi $i=0,003$ bo‘lgan holatida o‘tkazildi. Bu nishablik uchun Frud va Reynolds sonlari o‘zgarishining maksimal diapazoni shartlari o‘rnatildi. Bunda Frud sonlari 0,00058 dan 0,0027 gacha, Reynolds sonlari esa 43007,2 dan 199117,5 gacha bo‘lgan diapazonlarda o‘zgardi.

Dala sharoitidagi tadqiqotlar Qashqadaryo viloyatidagi “Qarshi magistral” kanalining PK 539 va PK 550 uchastkalarida olib borildi (4-rasm).



4-rasm. Tadqiqot olib borilgan KMK uchastkalari

Qarshi magistral kanali loyihasida uning suv o‘tkazish qobiliyati $360 \text{ m}^3/\text{s}$ ni tashkil etadi. Qarshi magistral kanalining ishchi qismi Tallimarjon suv omboridan boshlanib, uning umumiy uzunligi 105,3 km. ni tashkil qiladi. Kanal ishchi qismidagi o‘rtacha sarf – $331 \text{ m}^3/\text{s}$ va maksimal sarf – $350 \text{ m}^3/\text{s}$, kanal tubining kengligi esa 8-42 metrgacha o‘zgaradi. Kanal yon tomon qiyaliklari koeffitsiyentlari $m=2,5 \div 3,0$.

Kanalning burilish, PK367-PK370 va PK465-PK 469 uchastkalarida qirg‘oq qismining yuvilishi kuzatiladi. Kanaldagi dala tajribalariga ko‘ra PK 366 ÷ PK 560; PK 608 ÷ PK 644; PK 658 ÷ PK 724; PK 788 ÷ PK 792; PK 836 ÷ PK 855; PK 860 ÷ PK 890; PK 895 ÷ PK 1197 uchastkalarda kanalga keladigan suv sarfining kamayishi hisobiga intensiv ravishda oqiziqslarning yotqizilish jarayoni sodir bo‘lmoqda.


QMK kanalining PK 539 va PK 550 oralig‘idagi uchastkasining belgilangan stvorlarida oqim yo‘nalishini, jonli kesimining sarfini va tezliklarini aniqlash uchun tadqiqotlar olib borildi. Tadqiqotlarda kanal o‘zani va oqim parametrlarini o‘lchashda profillograf SONTEC S5 rusumli akustik doplerdan foydalanildi (5-7-rasmlar).



5-rasm. SONTEC S5 rusumli akustik doplarning ishchi holati



6-rasm. SONTEC S5 dasturiy kompleksi



7-rasm. Qarshi magistral kanalining PK547:

$$h_{\max} = 2,287 \text{ m}; v_{\max} = 1,213 \text{ m/s}; Q = 42,432 \text{ m}^3 / \text{s}.$$

Dissertatsiyaning “**Kanalning dinamik mustahkam ko‘ndalang kesimini va oqizqlar sarfini baholash**” nomli uchinchi bobida gruntli kanallarda barqaror va nobarqaror oqimlarning kinematik xarakteristikalari, ko‘ndalang kesim shakllanishi va oqizqlar transportini baholash bo‘yicha o‘tkazilgan tadqiqotlarning tahliliy natijalari keltiriladi.

Bu ishda kanal o‘zani ko‘ndalang kesimining dinamik mustahkamligini aniqlashga doir olib borilgan tadqiqot natijalari asosida hisob usullarini takomillashtirish vazifasi maqsad qilib qo‘yildi. AQSh melioratsiya byurosi tomonidan “olib ketuvchi kuchlar” usulining negizida olingan statik mustahkam kesimni hisoblash bog‘lanishi quyidagi ko‘rinishga ega:

$$\frac{h}{h_0} = \cos\left(\frac{\text{tg } \theta}{h_0} x\right), \quad (1)$$

bu yerda h_0 - kanal oqimining o‘rtacha chuqurligi; θ - tabiiy nishablik burchagi.

S.X.Abalyans o‘zanning dinamik mustahkamligini, ya’ni oqizqlarni transport qiladigan o‘zanning ko‘ndalang kesimini prognozlash uchun statik

mustahkamligini ifodalaydigan bog‘lanishlardan foydalanish mumkin degan gipotezani ilgari surgan. Buning uchun statik mustahkam o‘zanning formulasidagi θ tabiiy qiyalik burchagi o‘rniga uning 1,65 marta kichraytirilgan qiymati kiritiladi:

$$\theta_D = \frac{\theta}{1,65}, \quad (2)$$

bu yerda: θ_D va θ - mos ravishda gruntning dinamik va statik mustahkamligidagi ichki ishqalanish burchagi.

Ko‘pgina tadqiqotlarda ko‘rsatilishicha kanalning maksimal chuqurligini $h_m = 1,5h_0$ ekanligi va (2) ifoda e‘tiborga olinib hamda ular (1) bog‘lanishga kiritilib, kanalning barqaror oqimidagi o‘zan ko‘ndalang kesimining dinamik mustahkamligini ifodalaydigan quyidagi tenglama olindi:

$$\frac{h}{h_m} = \cos\left(\frac{tg\theta_D}{h_m} x\right) \quad (3)$$

yoki


$$h = h_m \cos\left(\frac{tg\theta_D}{h_m} x\right), \quad (4)$$


bu yerda h_m - dinamik mustahkam ko‘ndalang kesimli kanal oqimining o‘rtacha chuqurligi;

$$tg\theta_D = \frac{4,71h_0}{B}. \quad (5)$$

Bu hosil qilingan (3) tenglamaning to‘g‘riligini tekshirish maqsadida Qarshi muhandislik-iqtisodiyot institutining laboratoriyasida tadqiqotlar o‘tkazildi. Birinchi tajribalar oqimning barqaror rejimlarida kanal modeli yon tomon qiyaliklarining har xil koeffitsiyentlaridagi kanal ko‘ndalang kesimining deformatsiyasini tadqiqotlash uchun olib borildi.

Laboratoriya tajriba ma‘lumotlari (8.a-rasm) va hosil qilingan (3) formula (8.b-rasm) bo‘yicha kanal ko‘ndalang kesimlarining profillari qurildi.






8-rasm. Kanal ko‘ndalang kesimining profillari:

a - laboratoriya sharoitida (1A-tajriba); *b* – hisobiy (3 formula);
c – regression analiz.


Kanal ko‘ndalang kesimlarining laboratoriya va dala sharoitlarda olingan profillari regression tahlil qilindi (8.c-rasm). Bu olingan tenglamalar solishtirilganda ularning o‘zaro yaqinligini ko‘rish mumkin.

Bundan tashqari, kanal ko‘ndalang kesimining shakllanish jarayonini o‘rganishga binoan olingan laboratoriya va dala sharoitlaridagi tadqiqot ma’lumotlariga hamda (3) bog‘lanish hisobiy qiymatlariga ko‘ra qurilgan kanal ko‘ndalang kesimlari taqqoslanganda ularning bir-biriga yaqinligini 9-rasmdan ko‘rish mumkin. Shuningdek, 10-rasmda ko‘rsatilgan eksperimental va (3) formulaga ko‘ra hisoblangan h_{his} chuqurliklarining taqqoslanishi ham ularning o‘zaro yaqinligini ko‘rsatadi.



9-rasm. Kanal ko‘ndalang kesimi:

- dala sharoitida (KMK PK 542);
- laboratoriyada (3C-tajriba);
- (3) formula bo‘yicha.



10-rasm. eksperimental h_{eks} va (3) formulaga ko‘ra hisoblangan h_{his} chuqurliklarining taqqoslanishi

Keyingi masalada (3) tenglamadan nobarqaror holatda bo‘lgan kanallarning dinamik mustahkam ko‘ndalang kesimini hisoblash uchun ham foydalanish mumkin deb qaraldi. Buning uchun quyidagi tartibda ish olib borildi. Kanal yon tomoni qiyaligi shartli ravishda ikkiga bo‘lindi. Birinchi bo‘lagi shamol to‘lqinlari buzilish uchastkasiga to‘g‘ri keladi va bu holda quyidagi shartga (V.Munk kriteriysi) amal qilinadi deb qaralgan:

$$h \leq 1,28h_v, \quad (6)$$

bu yerda h_v – shamol to‘lqinlarining buzilish uchastkasidagi balandligi.

Bu uchastkada kanal tubining profili sohil ko‘rinishidagi relyef belgilariga mosligini ko‘rsatadi. Kanalning chuqurroq uchastkasi bo‘lgan ikkinchi bo‘lagida shamol to‘lqinlari ta‘siridagi olib ketuvchi kuchlar ko‘ndalang koordinatalarga bog‘liq emas deb faraz qilingan. Keyinchalik, shamol to‘lqinlari ta‘sirida kanal o‘zanining yon tomon qiyaliklari qirg‘oq qismlarini buzilishlari sodir bo‘ladi. Bu qaraladigan jarayon, shu uchastkada tub ostining yotiqroq profilli bo‘lib shakllanishi bilan tugallanadi.

Shamol to‘lqinlari ta‘sirida bo‘lgan qirg‘oqqa yon tomon qiyaliklarining yotiqlashuv jarayonini inobatga olish uchun, (2) tenglamaga tabiiy yon tomon qiyalik burchagini kattaligi quyidagi ko‘rinishda kiritildi:

$$tg \theta_v = tg \theta_D - K \frac{u_{*m}}{(v \cdot g)^{1/3}}, \quad (7)$$

bu yerda u_{*m} - shamol to‘lqinlarining ta‘siri ostida bo‘lgan oqim o‘zanining tubida sodir bo‘ladigan maksimal dinamik tezlik; K – empirik koeffitsiyent bo‘lib, u o‘tkazilgan tajribalarga asosan $K = 0,1 \dots 0,5$ oraliqda o‘zgaradi va bizning tajribalarda $K = 0,27$ qiymati olindi.

Ikkinchi tajribalarda to‘lqinlar hosil qiluvchi moslama yordamida nobarqaror (barqaror rejimdagi oqimga to‘lqinlar qo‘yilib) harakat yuzaga keltirilgan va kanalning dinamik mustahkam ko‘ndalang kesimini shakllanishi tadqiqotlangan.

Keyingi o‘rinlarda (3) tenglamaga (7) ifoda kiritilib quyidagi tenglama olingan:

$$\frac{h}{h_{mv}} = \cos \left[\frac{x}{h_{mv}} \left(tg \theta_D - K \cdot \frac{u_{*m}}{(v \cdot g)^{1/3}} \right) \right], \quad (8)$$

yoki

$$\frac{h}{h_{mv}} = \cos \left[\frac{\left(\frac{4,71h_0}{B_v} - K \frac{u_{*m}}{(v \cdot g)^{1/3}} \right) x}{h_{mv}} \right], \quad (9)$$

bu yerda h_{mv} - barqaror oqimga to‘lqinlar qo‘yilishidagi oqimning maksimal balandligi; B_v – barqaror oqim rejimida bo‘lgan kanal suv sathining eni bo‘lib, uni ushbu

$$B_v = B \sqrt{\frac{tg \theta_D}{tg \theta_v}} = B \sqrt{\frac{\frac{4,71h_0}{B}}{\left(\frac{4,71h_0}{B}\right)^2 - \frac{0,27(u_{*m})}{(vg)^{2/3}}} } \quad (10)$$


bog'lanishdan aniqlash mumkin.

Hosil qilingan (9) tenglama nobarqaror oqim holatida bo'lgan kanal dinamik mustahkam ko'ndalang kesimining tenglamasi bo'lib hisoblanadi.

Laboratoriya tajriba ma'lumotlari (11, a-rasm) va hosil qilingan (9) formula (11, b-rasm) bo'yicha kanal ko'ndalang kesimlarining profillari qurildi.

No-barqaror oqim holatida bo'lgan kanallarda ham, barqaror oqim holatidagi kabi ko'ndalang kesimlarining laboratoriya ma'lumotlari va (9) formulaga ko'ra hisoblangan profillari regression tahlil qilindi (11, c-rasm).


Bu hosil qilingan tenglamalar bir-biri bilan taqqoslanganda ularning yaqinligi ko'rinadi.



11-rasm. Kanal ko'ndalang kesimining profillari:
a - laboratoriya sharoitida (1D -tajriba); *b* – hisobiy (9 formula);
c– regression analiz.


Shuningdek, 12-rasmdan nobarqaror oqim sharoitida boʻlgan gruntli kanal koʻndalang kesimining shakllanish jarayonlarining laboratoriya va dala sharoitlarida olingan maʼlumotlari hamda (9) tenglamaning hisobiy qiymatlari boʻyicha chizilgan kanal koʻndalang kesimlarining profillari solishtirilganda ularning ham bir-biriga yaqinligini koʻrish mumkin.

13-rasmda aks ettirilgan h_{taj} eksperimental va (9) formula bilan hisoblangan h_{his} chuqurliklarining taqqoslanishi ularning bir-biriga yaqinligini koʻrsatadi va qoniqarli natijalarni beradi.



12-rasm. Kanal koʻndalang kesimi:

- dala sharoitida(KMK PK 544);
- laboratoriyada (5D-tajriba);
- (9) formula boʻyicha.



13-rasm. $(h)_{eks} = f(h)_{his}$ chuqurliklar bogʻlanishining taqqoslanishi

Navbatdagi qaraladigan ishda suv oqimi sirtiga taʼsir qiladigan oqim boʻyicha va oqimga qarshi yoʻnalgan toʻlqinlarning (aralash oqimlar) oqizqlarni transport qilish masalasi qarab chiqilgan. Masalaning yechimi aralash oqimda oqizqlar sarfining oqimning lokal quvvatiga proporsionalligi haqidagi gipotezaga asoslanadi. Toʻlqinli oqimlar uchun bu gipoteza birinchilardan boʻlib Bagnold tomonidan kiritilgan, ammo bu uning ishida hisoblash bogʻlanishini hosil qilish darajasigacha yetkazilmagan. Keyinchalik bunga oʻxshash gipotezalar koʻpgina ishlarda qabul qilingan:

$$q_s = \alpha P_T, \quad (11)$$

bu yerda q_s - birlik vaqt ichida bir birlik endan oqib oʻtadigan oqizqlar sarfi; P_T - aralash oqimning lokal transport qilish quvvati; α - proporsionallik koeffitsiyenti.

Biz oqizqlarning solishtirma sarfi oqimning quvvatiga proporsional boʻladi degan oddiy yondashuvni qabul qilsak, unda turbulent oqim uchun quyidagini yozishimiz mumkin:

$$q_S \sim u_T^3 \quad (12)$$

bu yerda u_T - tub osti oqiziqqlarni transport qiladigan tezlik.

Transport qiladigan tezlikni u_t to'liqinli va u_S tub ostidagi barqaror to'liqin tezliklarining yig'indisi kabi bo'ladi deb qaraymiz, ya'ni

$$u_T = u_t + u_S \quad (13)$$

To'liqinlar nazariyasining ikkinchi yaqinlashuvida

$$u_t = u_1 \cos \frac{2\pi t}{T_n} + u_2 \cos \frac{4\pi t}{T_n}, \quad (14)$$

bu yerda T_n - to'liqinlarning nisbiy davri.

(14) ni (13) ga qo'yib, keyin esa (12) kiritib va vaqt bo'yicha o'rtalashtiramiz va quyidagi bog'lanishga ega bo'lamiz:

$$u_T^3 = \frac{3}{4} u_1^2 u u_2 + \frac{3}{2} (u_1^2 + u_2^2) u_S + u_S^3 \quad (15)$$

Bunda u_1 va u_2 - mos bo'lgan garmonik o'zgarishlarning amplitudasi:

$$\left. \begin{aligned} u_1 &= \pi \left(\frac{h_v}{T_a} - \frac{h_v u}{\lambda_v} \right) s h^{-1} \frac{2\pi h}{\lambda_v} \\ u_2 &= \frac{3}{4} \pi^2 \left(\frac{h_v}{T_a} - \frac{h_v u}{\lambda_v} \right) \left(\frac{h_v}{\lambda_v} \right) s h^{-4} \frac{2\pi h}{\lambda_v} \end{aligned} \right\} \quad (16)$$

bu yerda T_a - to'liqinlarning absolyut davri.

u_S - tub ostidagi barqaror to'liqin tezligining barqaror komponentlarini quyidagi ko'rinishda yozish mumkin:

$$u_S = \alpha_1 \bar{u}_2 + u, \quad (17)$$

bu yerda \bar{u}_2 - Longe-Xiggins bog'lanishi bilan aniqlanadigan tub osti qatlamdagi to'liqinli oqimning tezligi bo'lib, u quyidagicha aniqlanadi:

$$\bar{u}_2 = \frac{5\pi h_v^2}{16sh^2kh}; \quad (18)$$

α_1 - tub ostidagi to'liqinli oqimning asosiy u barqaror oqimga qo'yilishi bilan bog'liq bo'lgan koeffitsiyent.

$$\alpha_1 = \begin{cases} 0, & \text{yo'ldosh oqim;} \\ 1, & \text{oqim bo'lmaganda;} \\ 2, & \text{to'liqinlar buzilmagandagi qarama - qarshi oqimlar;} \\ 0, & \text{to'liqinlar buzilgandagi qarama - qarshi oqimlar.} \end{cases} \quad (19)$$

To‘lqinlar buzilishigacha bo‘lgan zonadagi tub osti to‘lqin tezliklari uchun quyidagi bog‘lanishga ega bo‘lamiz:

$$\frac{u_s}{u} = 2,5\pi^2 \left(\frac{h_v}{uT_a} + \frac{h_v}{\lambda_v} \right) \left(\frac{h_v}{\lambda_v} \right) sh^{-2} \frac{2\pi h}{\lambda_v} - 1 \quad (20)$$

(15) ni (12) ga qo‘yib, oqizqlarning solishtirma sarfini aniqlash ifodasini topamiz:

$$q_s = \frac{\alpha}{g} \left[\frac{3}{4} u_1^2 u_2 + \frac{3}{2} (u_1^2 + u_2^2) u_s + u_s^3 \right], \quad (21)$$

bu yerda α - proporsionallik koeffitsiyenti.

q_s sarfning faqat oqimga mos bo‘lgan q_{s0} oqizqlar sarfiga nisbatini quyidagi ko‘rinishda hosil qilamiz:

$$\begin{aligned} \frac{q_s}{q_{s0}} = & \frac{9}{16} \pi^4 \left(\frac{h_v}{uT_a} + \frac{h_v}{\lambda_v} \right)^3 \left(\frac{h_v}{\lambda_v} \right) sh^{-6} \frac{2\pi h}{\lambda} + \\ & + \frac{3}{2} \frac{u_s}{u} \pi^2 \left(\frac{h_v}{uT_a} + \frac{h_v}{\lambda_v} \right)^2 sh^{-2} \frac{2\pi h}{\lambda} \left[1 + \frac{9}{16} \pi^2 \left(\frac{h_v}{\lambda_v} \right) sh^{-6} \frac{2\pi h}{\lambda_v} \right] + \left(\frac{u_s}{u} \right)^3, \end{aligned} \quad (22)$$

bu yerda tenglamaning o‘ng tomonidagi manfiy belgi yo‘ldosh oqimga, musbat belgi esa qarshi oqimga tegishli ekanliklarini bildiradi; u_s/u nisbat (20) ifodadan aniqlanadi. Bunda qarshi oqimda to‘lqinlar buzilishigacha, yo‘ldosh va qarshi oqimlarda to‘lqinlar buzilishidan keyingi holatlarda $(u_s/u) = 1$ qabul qilinadi.

(22) formula biz tomonidan qarab chiqilgan ishning asosiy natijasi bo‘lib hisoblanadi.

Endi faqat barqaror oqim uchun bo‘lgan holat qaralsa, unda (22) tenglikdan quyidagi bog‘lanish hosil qilinadi:

$$q_{s0} = \frac{\alpha u^3}{g}. \quad (23)$$

Bu munosabat zarrachalar qo‘zg‘alishi va o‘zan qarshiligi qayd etilgandagi o‘zan oqizqlari sarfi uchun oqizqlar sarfi tezlikning kubiga proporsional bo‘lgan bir qator bog‘lanishlarga mos bo‘ladi.

Demak, q_s oqimga to‘lqin qo‘yilishi holatidagi oqizqlar sarfining faqat q_0 to‘g‘ri oqim (to‘lqinsiz) oqizqlar sarfiga nisbati h_v/λ_v nisbiy chuqurlikka, h/λ_v to‘lqinlar tikligiga va $h_v/(uT_a)$ tub osti orbital tezliklarining oqim tezligi nisbatlariga (Frud soniga o‘xshash) bog‘liq bo‘ladi. Agar oqizqlar sarfi faqat to‘g‘ri oqimni o‘zidan iborat bo‘lib, q_0 ma’lum bo‘lsa, unda to‘lqinlar ta’sirini baholashni (22) bog‘lanish orqali amalga oshirish mumkin.

$(q_s/q_0)_{taj} = f(q_s/q_0)_{his}$ taqqoslashlar laboratoriyada olingan ma’lumotlarning (22) bog‘lanishga ko‘ra hisoblangan qiymatlarga ancha yaqinligini ko‘rsatdi.

Dissertatsiyaning **“Kanallarning dinamik mustahkam ko‘ndalang kesimlarini va oqiziqalar transportini hisob usullaridan muhandislik masalalarida foydalanish”** nomli to‘rtinchi bobida yuqorida ko‘rsatilgan masalalarga mos ravishda takomillashtirilgan gidravlik hisob usullari ilmiy tavsiyalarning asosi bo‘lib hisoblanadi. Ilmiy tavsiyalarga kanallarning barqaror va nobarqaror oqimlari sharoitlarida dinamik mustahkam kesimini va oqiziqalar nisbiy sarfining takomillashgan hisoblari kiritilgan.

Quyidagi hisob algoritmlari ishlab chiqilgan:

- kanalning barqaror va nobarqaror oqimlarida o‘zan dinamik mustahkam ko‘ndalang kesimini hisoblash algoritmi;
- kanalning barqaror va nobarqaror oqimlarida oqiziqalar sarfini hisoblash algoritmi.

Taklif etilgan takomillashgan hisob usullariga ko‘ra quyidagi ilmiy tavsiyalar ishlab chiqilgan:

“Рекомендации по гидравлическому расчету расхода наносов крупных земляных каналов в условиях ветро-волнового потока” (Amu-Qashqadaryo irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasining 2021-yil 28-maydagi 01-04/35-son texnik kengashida va Qarshi muhandislik-iqtisodiyot institutining 2021-yil 27-may 5-sonli Kengashida tasdiqlangan).

“Shamol to‘lqinlari ta‘sirida bo‘lgan kanal oqimining holatlarida o‘zanning dinamik mustahkam kesimini hisobiga doir tavsiyalar” (Amu-Qashqadaryo irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasining 2021-yil 28-maydagi 01-04/35-son texnik Kengashida va Qarshi muhandislik-iqtisodiyot institutining 2021-yil 27-maydagi 5-sonli Kengashida tasdiqlangan.).

XULOSALAR

1. AQSH melioratsiya byurosi tomonidan statik mustahkam ko‘ndalang kesim hisobi uchun taklif etilgan tenglamani dinamik mustahkam ko‘ndalang kesimining hisobi uchun ham qo‘llanishi mumkinligi ko‘rsatilgan. Shuningdek, Quik tomonidan olingan nisbiy oqiziqalar sarfini aniqlash bog‘lanishini ochiq gruntli kanallardagi nobarqaror oqim sharoitlarda ham foydalanish mumkinligi ko‘rsatilgan. Keltirilgan ikkala usul juda ko‘p laboratoriya va dala tajribalari asosida ishlab chiqilgan va xorij mamlakatlari amaliyotida keng qo‘llaniladi. Shu sababli bu usullar asosida takomillashgan hisob usullari ishlab chiqildi.

2. Tadqiqotlarning ko‘rsatishicha, nobarqaror oqim sharoitlarida kanal tub osti profilining yassilanish jarayoni kuchayadi. Qirg‘oqli yon tomon qiyaliklarining aniq uch zonaga ajralishlari ko‘rinadi. Birinchi chuqurroq zonada kamroq chuqurliklarga ega o‘rtacha va yuqori zonadan olib tushilgan tub oqiziqalarning akkumulyasiyasi kuzatiladi. Yon tomon qiyaligining yuqori qismida, kichik chuqurlikdagi maksimal to‘lqinlar transformasiyasi zonasiga mos sohil belgilarini o‘ziga mujassam etgan relyef shakli paydo bo‘ladi. Yon tomon qiyaligining o‘rta qismida, yon tomon qirg‘oqlarining tashqi qismini umumiy yassilanish holatini keltiruvchi pastki qismining akkumulyasiyasi bilan hisobga olinganda, uning tub ostini yuvilishi kuzatiladi.

3. Olib borilgan eksperimental tadqiqot natijalari va energetik bog‘lanishlarga asosan kanal barqaror va nobarqaror oqimlari uchun dinamik mustahkam ko‘ndalang kesimning takomillashgan hisobiy bog‘lanishlari olindi. Bu bog‘lanishlar bo‘yicha hisoblangan qiymatlarning olib borilgan laboratoriya tadqiqotlari ma‘lumotlari bilan taqqoslanganda ularning o‘zaro yaxshi munosabatini ko‘rsatdi. Bu olingan bog‘lanishlar asosida kanal ko‘ndalang dinamik mustahkam kesimining gidravlik modeli ishlab chiqildi.

4. Eksperimental tadqiqot tahlili natijalari va energetik bog‘lanishlarga asosan kanal barqaror va nobarqaror oqimlarida nisbiy oqiziqalar sarfini aniqlash uchun takomillashgan bog‘lanishlar olindi. Bu olingan bog‘lanish bo‘yicha hisoblangan qiymatlarning eksperimental tadqiqotlar ma‘lumotlari bilan taqqoslanganda ularning o‘zaro yaxshi munosabatini ko‘rsatdi. Bu olingan bog‘lanishlar asosida kanal barqaror va nobarqaror oqimlarida oqiziqalar sarfi hisobining gidravlik modeli ishlab chiqildi.

5. Modifikasiyalashtirilgan energetik va morfometrik bog‘lanishlar asosida ishlab chiqilgan gidravlik modellar laboratoriya ma‘lumotlari, dala tadqiqotlari va raqamli modellashtirish natijalaridan foydalanilgan holda aniqlashtirilgan va tasdiqlangan.

6. Takomillashtirilgan hisob usullariga asosan quyidagi ilmiy tavsiyalar ishlab chiqilgan: “Рекомендации по гидравлическому расчету расхода наносов крупных земляных каналов в условиях ветро-волнового потока” (Amu-Qashqadaryo irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasining 2021-yil 28-maydagi 01-04/35-son texnik kengashida va Qarshi muhandislik-iqtisodiyot institutining 2021-yil 27-may 5-sonli Kengashida tasdiqlangan).

“Shamol to‘lqinlari ta’sirida bo‘lgan kanal oqimining holatlarida o‘zanning dinamik mustahkam kesimini hisobiga doir tavsiyalar” (Amu-Qashqadaryo irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasining 2021-yil 28-maydagi 01-04/35-son texnik Kengashida va Qarshi muhandislik-iqtisodiyot institutining 2021-yil 27-maydagi 5-sonli Kengashida tasdiqlangan).

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ PhD. 04/30.04.2021.Т.111.04 ПО
ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЁНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ КАРШИНСКОМ
ИНЖЕНЕРНО-ЭКОНОМИЧЕСКОМ ИНСТИТУТЕ**

КАРШИНСКИЙ ИНЖЕНЕРНО-ЭКОНОМИЧЕСКИЙ ИНСТИТУТ

РАХИМОВ АШРАФ РАСУЛ УГЛИ

**ИССЛЕДОВАНИЕ ДЕФОРМАЦИЙ ГРУНТОВЫХ КАНАЛОВ ПРИ
НЕУСТАНОВИВШЕМСЯ ДВИЖЕНИИ ВОДНОГО ПОТОКА**

05.09.07- Гидравлика и инженерная гидрология

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD)
ПО ТЕХНИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Карши-2021

Тема диссертации доктора философии (PhD) по техническим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Кабинете Министров Республики Узбекистан за В2021.1.PhD/Т2159

Диссертация выполнена в Каршинском инженерно-экономическом институте.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице по адресу qmii@qmii.uz и на Информационно-образовательном портале «ZiyoNet» по адресу (www.ziynet.uz)

Научный руководитель: Эшев Собир Саматович
доктор технических наук, профессор

Официальные оппоненты: Махмудов Эрназар Жумаевич
доктор технических наук, профессор

Ибрагимов Илхом Ахрорович
доктор философии технических наук (PhD)

Ведущая организация: Национальный университет Узбекистана

Защита диссертации состоится “23” 11 2021 года в 14:00 часов на заседании Научного совета PhD. 04/30.04.2021.Т.111.04 при Каршинском инженерно-экономическом институте по адресу: 180100, г.Карши, ул. Мустакиллик 225, тел:(+99875) 221-09-23 факс: (+99875) 224-13-95 e-mail: kiei_info@edu.uz, qmii@qmii.uz

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Каршинского инженерно-экономического института (регистрационный № 13) по адресу: 180100, г.Карши, ул. Мустакиллик 225, тел: (+99875) 221-03-77 e-mail: arm.qmii.uz

Автореферат диссертации разослан “24” 10 2021 года.
(Протокол рассылки № 1 от “24” 20 2021 года.)



У.У.Жонқобилов
Зам. Председателя научного совета по присуждению
ученых степеней, д.т.н. профессор

Ш.А.Латипов
Учёный секретарь научного совета по присуждению
ученых степеней, д.ф.т.н., (PhD) доцент

Ф.А.Гапбаров
Председатель научной семинара при
научном совете по присуждению
ученых степеней, д.т.н., доцент

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В мире при истечении воды из гидротехнических сооружений, построенных на русле реки, она влияет на её естественный режим и приводит к разного рода деформациям. Деформация русла может не только повлиять на нормальную эксплуатацию сооружений, но и поставить под угрозу само сооружение. Поэтому знание закономерностей руслового процесса является очень важной задачей. Для её решения необходимо своевременное предотвращение аварий и негативных последствий, которые могут возникнуть на строящихся и эксплуатируемых сооружениях. В настоящее время волновому движению потока в проектируемых грунтовых каналах уделяется мало внимания. В связи с этим одним из важнейших вопросов является изучение деформационных процессов и разработка методов их прогнозирования с учетом воздействия ветрового волнения на течение открытых грунтовых каналов.

В мире уделяется большое внимание усовершенствованию методов расчёта динамически устойчивых поперечных сечений и транспорта наносов грунтовых каналов, в условиях установившегося и неустановившегося (при влиянии ветровых волн на течения) течений. По этому направлению, в том числе в России, США, Китае, Нидерландах, Германии, Франции, Японии и других развитых странах особое внимание уделяется в разработке надёжных методов проектирования земляных каналов, предотвращающих их деформацию и обеспечение их эффективного использования в условиях установившегося и неустановившегося потока. В последнее время в мировой практике разрабатываются прогрессивные методы определения параметров ветрового волнения при проектировании грунтовых каналов, и большое внимание уделяется оценке их влияния на деформационные процессы. Таким образом, выбранная тема - одна из актуальных проблем сегодняшнего дня.

В нашей республике ведутся многочисленные исследования по обеспечению совершенных разработок с изучением факторов, влияющих на проектирование и эффективную эксплуатацию ирригационных грунтовых каналов, а также определение их оценки и условий внедрения. В Стратегии действий по дальнейшему развитию Республики Узбекистан на 2017-2021 гг. поставлены задачи по «...сокращению энергоёмкости и ресурсоёмкости, развитию мелиоративных и ирригационных объектов, широкое внедрение в производство энергосберегающих технологий»¹ для повышения конкурентно способности национальной экономики. В решении данных задач важное значение имеет проведение научно-исследовательских работ, направленных на разработку рациональных методов проектирования и эффективной эксплуатации в период дефицита водных ресурсов на основе учета факторов возникающих повреждений, отказов и аварий.

¹ Указ Президента Республики Узбекистан УП-4947 от 7 февраля 2017 года «Стратегия дальнейшего развития Республики Узбекистан»

Данное диссертационное исследование в определенной степени служит выполнению задач, предусмотренных в Указах Президента Республики Узбекистан от 7 февраля 2017 года №4947 «О стратегии действий по дальнейшему развитию Республики Узбекистан на 2017-2021 года» и от 10 июля 2020 года УП-6024 «Об утверждении концепции развития водного хозяйства Республики Узбекистана на 2020–2030 годы», а также Постановлении Президента Республики Узбекистан от 25 сентября 2017 года №ПП-3286 «О мерах по дальнейшему совершенствованию системы охраны водных объектов» и других нормативно-правовых документах, имеющих отношение к данной деятельности.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики. Данное исследование выполнено в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий республики (V.) «Сельское хозяйство, биотехнология, экология и охрана окружающей среды».

